

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/29.12.2023.B.20.10
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

UTEMURATOV NAJIMATDIN ASAMATDINOVICH

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA BOLALARDA
YOSHGA OID RIVOJLANISHNING GETEROXRONIZMI (7-11 YOSH)
(BO'YI, VAZNI, KETLE KO'RSATKICHI VA BOSHQALAR)**

03.00.08 - Odam va hayvonlar fiziologiyasi

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Utemuratov Najimatdin Asamatdinovich

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida bolalarda yoshga oid rivojlanishning geteroxronizmi (7-11 yosh) (bo‘yi, vazni, kete ko‘rsatkichi va boshqalar)..... 3

Утемурагов Нажиматдин Асаматдинович

Гетерохронизм возрастного развития у детей в условиях Республики Каракалпакстан (7-11 лет) (рост, вес, показатель кетле и др.)..... 21

Utemuratov Najimatdin Asamatdinovich

Age-related features of heterochronism in children in the Republic of Karakalpakstan (7-11 years) (height, weight, Quetelet index and others)..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/29.12.2023.B.20.10
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

UTEMURATOV NAJIMATDIN ASAMATDINOVICH

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA BOLALARDA
YOSHGA OID RIVOJLANISHNING GETEROXRONIZMI (7-11 YOSH)
(BO'YI, VAZNI, KETLE KO'RSATKICHI VA BOSHQALAR)**

03.00.08 - Odam va hayvonlar fiziologiyasi

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/B611 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Matchanov Azat Taubaldievich biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponetlar:	Qurbanov Shoniyaz XXX biologiya fanlari doktori, professor Seytkamalov Xayratdin Maulenovich biologiya fanlari falsafa doktori
Yetakchi tashkilot:	Buxqro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/29.12.2023.B.20.10 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «16» 06 kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy. Universitet majlislar zali. Tel: (+99861) 223-60-47, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 306 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1 uy, Tel: (+99861) 223-59-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «27» 05 kuni tarqatildi.
(2025 yil «27» 05 dagi № 1 -raqamli reystr bayonnomasi)


Sh.I. Allamuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rais o'rinbosari, b.f.d., professor
G.S.Begdullaeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.n., dotsent
A.T.Esimbetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo ... har qanday jamiyat kelajagini belgilab beruvchi yosh avlodning jismoniy, aqliy jihatdan sog‘lom rivojlanishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘z navbatida maktab yoshidagi bolalar va o‘smirlar organizmining o‘shish-rivojlanish darajasini monitoring qilishda antropometrik ilmiy-tadqiqotlar asosida organizmda yuzaga kelishi ehtimolligi mavjud salbiy patologik holatlarning oldini olish choralarini ko‘rish amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Jahonda bolalar va o‘smirlarning jismoniy rivojlanish darajasini muntazam monitoring qilish, organizmda alohida to‘qima va organlar, funksional tizimlarning rivojlanishi jadalligi vaqt davomida o‘zaro farqlanishini (geteroxronizm) ilmiy asoslash, turli kasalliklarning oldini olish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bu borada ekologik noqulay tashqi muhit sharoitida yashovchi aholi populyasiyasi tarkibida bolalar va o‘smirlarning me‘yoriy jismoniy rivojlanishi yuzasidan tegishli strategik dasturlarni ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda Janubiy Orolbo‘yi sharoitida yashaydigan aholi salomatligining hozirgi holatini monitoring qilish, atrof-muhitning ular organizmiga salbiy ta‘sirini tahlil qilish va kasalliklarning oldini olishga katta e‘tibor qaratilmoqta. Bu borada, jumladan, Orolbo‘yi mintaqasida sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish va aholi genofondini asrash bo‘yicha loyihalar ishlab chiqildi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “...iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizi halokatining salbiy ta‘sirini yumshatish” bo‘yicha vazifalari belgilab berilgan.¹ Ushbu vazifalardan kelib chiqib Qoraqalpog‘iston Respublikasining Orolbo‘yi mintaqasida joylashgan maktab o‘quvchilarini turli iqlim-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik sharoitlarda ontogeneza bolalik va o‘smirlik davrida organizmning morfo-fiziologik taraqqiyoti, o‘shish-rivojlanish jarayonlarini kompleks tavsiflash, endogen va ekzogen omillarning ta‘sirini tahlil qilish, me‘yoriy holatdan chetga og‘ishlarni o‘z vaqtida aniqlash va korreksiya qilish choralarini ko‘rish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 24-oktyabrdagi “O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida”gi PF-3154-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonida belgilangan ustuvor vazifalarni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni (IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishida “bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, umumiy o‘rta ta‘lim sifatini tubdan oshirish” bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan) amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotini shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Odam organizmining jumladan, bolalar va o‘smirlarda ularning antropometrik ko‘rsatkichlari asosida morfo-fiziologik holatini baholash, salomatligi bilan bog‘liq sezilarli darajadagi salbiy o‘zgarishlar va me‘yoridan chetga og‘ish holatlarini aniqlash hamda optimallashtirish yo‘nalishida tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishga doir tadqiqotlar xorijlik olimlar T.Cole (1995), R.Zetterstrom (1999), M.De Onis (2007), S.Yuca (2014), T.Pouliou (2015) va boshqalar tomonidan olib borilgan. MDH davlatlarida odam organizmi, jumladan bolalar va o‘smirlarning antropometrik ko‘rsatkichlari asosida morfo-fiziologik holatini baholash, patologik holatlarni bashorat qilish, mazkur yo‘nalishdagi qonuniyatlarga aniqlik kiritish yuzasidan eksperimental tadqiqotlar Yu.Yampolskaya (1998), V.Kuchma (2002), S.Mirbabaeva (2004), I.Voronsov (2006), X.Bekmansurov (2007), L.Nazarova (2010), N.Kozlikina (2011), E.Bogomolova (2012), K.Sakibaev (2018), A.Sattarov (2019), B.Gritsinskaya (2020) kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

O‘zbekistonda, jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Orolbo‘yi mintaqasida yashovchi bolalar va o‘smirlarda jismoniy rivojlanish darajasi monitoringi va mazkur holatga turli omillar ta‘sirini o‘rganish yo‘nalishidagi tadqiqotlar T.Muxamedov (1994), T.Yeshanov (2001), A.Kurbanov (2002), S.Mambetullaeva (2005), A.Matchanov, A.Utepbergenov (2007, 2017, 2021), E.Crighton (2011), R.Kamilova (2016), V.Babajanova (2017), E.Maturazova, V.Erkudov, K.Rozumbetov (2020) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Biroq, mazkur tadqiqot ishlarida bolalar va o‘smirlarda jismoniy rivojlanish darajasi tahlili ma‘lum hududlar bo‘yicha amalga oshirilgan. Shunga ko‘ra, mazkur yo‘nalishda ayniqsa, ekologik xavf darajasi yuqori bo‘lgan Orolbo‘yi mintaqasida bolalar va o‘smirlar jismoniy rivojlanish darajasini doimiy monitoring qilish, hududiy standartlarni ishlab chiqish, mavjud statistik ma‘lumotlarni yangilash nuqtai nazaridan davom ettirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya

tadqiqoti Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining “Janubiy Orolbo‘yining ekologik jihatdan noqulay muhiti ta’siri ostida shakillangan odam va hayvonlar organizmining morfologik, fiziologik va biokimyoviy xususiyatlarini o‘rganish” (2019-yil 29-avgust, №1) ilmiy-tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog‘iston Respublikasining Orolbo‘yi mintaqasida (Mo‘ynoq tumani, Nukus shahri, Ellikqal’a tumani) joylashgan maktab o‘quvchilarida (7-11 yosh) morfo-fiziologik rivojlanish darajasini solishtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Orolbo‘yi mintaqasida (Mo‘ynoq tumani, Nukus shahri, Ellikqal’a tumani) maktab o‘quvchilarida (7-11 yosh) antropomerik ko‘rsatkichlar, “Z-score”-tahlil, sentil-shkala bo‘yicha jismoniy rivojlanish darajasini solishtirma tahlil qilish asosida geteroxronizm xususiyatlarini tavsiflash;

Pine, Erisman, Pushkarev indeksi asosida noqulay tashqi muhit omillarining o‘quvchilarda (7-11 yosh) respirator tizim morfo-funksional ko‘rsatkichlari, organism rivojlanish darajasiga ta’siri sharoitida konstitutsiya (somatotiplar) tiplarini aniqlash;

Maktab o‘quvchilarida (7-11 yosh) YUUCH, sistolik/diastolik arterial qon bosimi ko‘rsatkichlari asosida kardiovaskulyar tizim, Robinson indeksi asosida energetik almashuv jarayonlari, Kerdo indeksi bo‘yicha vegetativ asab tizimi funksional holatining noqulay tashqi muhit sharoitida kompensatsion adaptatsiya darajasini tavsiflash;

Orolbo‘yi mintaqasida maktab o‘quvchilarida (7-11 yosh) nafas olish tizimi funksional ko‘rsatkichlari (O‘TS, HI) tahlili asosida respirator tizim adaptatsiya darajasini tavsiflash;

Orolbo‘yi mintaqasida maktab o‘quvchilarida (7-11 yosh) dinamometriya uslubi yordamida qo‘l kafti kuchi tahlili asosida fiziologik yosh va jinsga bog‘liq geteroxronizm xususiyatlarini baholash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Orolbo‘yi mintaqasi iqlim-geografik sharoitida maktab o‘quvchilarining jismoniy rivojlanish darajasini monitoring qilish, hududiy standartlarni yaratish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan tashkil topgan.

Tadqiqotning ob’yekti Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanida joylashgan №2-, №3-maktab, Nukus shahrida joylashgan №8-maktab va Ellikqal’a tumanida joylashgan №20-, №37-maktablarda ta’lim oluvchi o‘quvchilardan (7-11 yosh) tashkil topgan.

Tadqiqotning predmeti. Orolbo‘yi mintaqasida (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) noqulay ekologik tashqi muhit sharoitida maktab o‘quvchilarida (7-11 yosh) morfo-fiziologik rivojlanish darajasini tahlil qilish asosida bolalarning jismoniy rivojlanish darajasini monitoring qilish, hududiy standartlar yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada standart antropometrik-fiziometrik usullaridan foydalanilgan. Olingan esperimental natijalarni matematik-statistik qayta ishlashda “Microsoft Excel 2007” (Microsoft, AQSH) va “OriginPro v. 8.5 SR1” (EULA, Northampton, MA 01060-4401, AQSH) maxsus dastur paketlari,

shuningdek bolalarning (7-11 yosh) antropometrik ko'rsatkichlarini "Z-score"/persentil uslubi yordamida baholashda JSST tomonidan tavsiya etilgan – "WHO AnthroPlus" maxsus dasturidan ("Department of Nutrition, WHO"; 20 Avenue Appia, 1211 Geneva 27, Switzerland) foydalanilgan².

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Orolbo'yi mintaqasida (Mo'ynoq tumani, Nukus shahri, Ellikqal'a tumani) maktab o'quvchilarida (7-11 yosh) antropometrik ko'rsatkichlar (tana vazni, bo'y uzunligi, ko'krak qafasi aylanasi) ekologik xavf zonasidan uzoqlikda joylashish masofasiga variatsion bog'liqligi, o'rtacha qiymatlar bo'yicha "Z-score"-tahlil (WAZ, HAZ va BAZ), sentil-shkala bo'yicha jismoniy rivojlanish me'yor diapazonida bo'lib, respondentlarda ozg'inlik, ortiqcha vazn, bo'y pastligi va uzunligi Mo'ynoq tumanida Nukus shahri, Ellikqal'a tumaniga nisbatan kamligi isbotlangan;

Pine indeksi bo'yicha har ikkala jins vakillari (7-11 yosh) ektomorf yoki kuchsiz rivojlangan gavda tuzilishiga (gipostenik yoki astenik tip) egaligi (Pine indeksi>30), Erisman indeksi bo'yicha har ikkala jins vakillari "manfiy" ishoraga egaligi, bu holat "ko'krak qafasi o'lchamlari tor" tip ustuvorligi, noqulay tashqi muhit omillari ko'krak qafasi, o'z navbatida respirator tizim morfo-funksional ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, Pushkarev indeksi asosida Mo'ynoq tumanida №2-, №3-maktablarda qizlarda 9 yoshda (Pushkarev indeksi=111,76), Nukus shahrida №8-maktabda 11 yoshda (Pushkarev indeksi=113,54) "disgormonik" rivojlanish (me'yordan chetga og'ish I darajasi/astenik tip), qolgan yosh guruhlarida "uyg'unlikda rivojlanish" (normostenik/MeS) darajasi aniqlangan;

O'quvchilarida (7-11 yosh) YUUCH, sistolik/diastolik arterial qon bosimi ko'rsatkichlari me'yorga nisbatan sezilarli yuqoriligi, bu holat kardiovaskulyar tizimning noqulay tashqi muhit sharoitida adaptatsiya tipida kompensatsion mexanizmlari amalga oshishi bilan bog'liqligi, Robinson indeksi asosida energetik almashuv jarayonlari o'g'il bolalar va qizlarda (7-10 yosh) umumiy "yaxshi" holatdaligi, Kerdo indeksi tahlili asosida, o'quvchilarida vegetativ asab tizimi holati to'liq "simpatik toniya", ya'ni simpatik asab tizimi ustuvorligi aniqlangan;

O'quvchilarida (7-11 yosh) nafas olish tizimi funksional ko'rsatkichlari (O'TS, HI) tahlili asosida mazkur qiymatlar fiziologik yosh va jinsga bog'liq dinamik tavsifga egaligi, umumiy holatda me'yor qiymatlaridan pastligi aniqlangan.

Mo'ynoq tumanida №2-, №3-maktablar o'quvchilarida (7-11 yosh) qo'l kafti kuchi tahlili mazkur ko'rsatkich fiziologik yosh va jinsga bog'liq farqlanishi, o'g'il bolalarda qizlarga nisbatan yuqoriligi, o'ng va chap qo'l kuchi qiymatlari o'g'il bolalarda 7 yoshga nisbatan 11 yoshda mos ravishda – 65,74 va 71,23% ga ortishi, qizlarda mos ravishda – 69,11 va 59,31% ga ortishi aniqlangan.

Olingan eksperimental natijalar tahlili asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Orolbo'yi mintaqasi iqlim-geografik sharoitida maktab o'quvchilarining jismoniy

²WHO Anthro Survey Analyser and other tools // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://www.who.int/toolkits/child-growth-standards/software> Дата обращения: 26.04.2022 г.

rivojlanish darajasini monitoring qilish, hududiy standartlarni yaratish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Orolbo‘yi mintaqasida (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) noqulay ekologik tashqi muhit sharoitida maktab o‘quvchilarida (7-11 yosh) morfo-fiziologik rivojlanish darajasini tahlil qilish asosida bolalarning jismoniy rivojlanish xususiyatlarini monitoring qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

maktab o‘quvchilari (7-11 yosh) kardiorespirator tizimining funksional holatining hududiy standartlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada zamonaviy standart fiziologik eksperimental uslublar va qurilmalarning qo‘llanilganligi, shuningdek, olingan natijalarni matematik-statistik qayta ishlash dasturlari (“Microsoft Excel 2007” (Microsoft, AQSH), “OriginPro v. 8.5 SR1” (EULA, Northampton, MA 01060-4401, AQSH), “WHO AnthroPlus” (“Department of Nutrition, WHO”; 20 Avenue Appia, 1211 Geneva 27, Switzerland) dan foydalanilganligi hamda ilmiy yondashuvlar, tahlillar asosida olingan natijalarning nazariy ma‘lumotlarga mos kelishi, ularning nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi, amaliy natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qoraqalpog‘iston Respublikasining uchta hududida (Mo‘ynoq tumani, Nukus shahri, Ellikqal‘a tumani) joylashgan maktab o‘quvchilarining (7-11 yosh) asosiy antropometrik ko‘rsatkichlari asosida geteroxronizm xususiyatlarining aniqlanganligi, antropometrik indekslar, “Z-score”-tahlil asosida jismoniy rivojlanish darajasi solishtirma tahlil qilinganligi, konstitutsiya tiplarini aniqlanganligi, kardiorespirator, energetik almashuv, vegetativ asab tizimi funksional ko‘rsatkichlarining ochib berilganligi, dinamometriya uslubi asosida geteroxronizmining baholanganligi bilan izohlanadi;

Tadqiqotning amaliy ahamiyati Orolbo‘yi mintaqasida (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) noqulay ekologik tashqi-muhit sharoitida maktab o‘quvchilarida (7-11 yosh) morfo-fiziologik rivojlanish darajasini tahlil qilish asosida bolalarning jismoniy rivojlanish darajasi monitoring qilingan, hududiy standartlarni yaratish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida bolalarda yoshga oid rivojlanishning geteroxronizmi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

Qoraqalpog‘iston Respublikasida (Mo‘ynoq tumani, Nukus shahri, Ellikqal‘a tumani) joylashgan maktab o‘quvchilarining (7-11 yosh) noqulay ekologik tashqi-muhit sharoitida asosiy antropometrik ko‘rsatkichlarini yoshga, jinsga bog‘liq rivojlanish xususiyatlarini baholash va kardiorespirator tizimining funksional holatining hududiy standartlarini ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2023-yil 11-noyabrdagi 01/10726-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Qoraqalpog‘iston sharoitida maktab o‘quvchilarining (7-11 yosh) jismoniy rivojlanishi va kardiorespirator

tizimining funksional holati bo'yicha hududiy normativlarni ishlab chiqish imkonini bergan;

maktab o'quvchilarida (7-11 yosh) konstitutsiya tiplarini aniqlash va dinamometriya uslubi asosida geteroxronizmini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgasha va maktab ta'lim vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgasha va maktab ta'lim vazirligining 2023 yil 14 noyavrdagi 02-01/6-4346-son ma'lumotnomasi). Natijada Qoraqalpog'iston Respublikasining noqulay ekologik sharoitlarida bolalarning jismoniy chidamliligi va chiniqish chegaralarini aniqlash maqsadida har xil turdagi sport mashg'ulotlarini bajarishda kardiorespirator tizim faoliyatining xususiyatlarini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shulardan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, yakuniy qism, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Bolalar va o'smirlar organizmida yoshga oid rivojlanishda geteroxronizm xususiyatlari**" deb nomlangan **I bobida** bolalar organizmida o'sish va rivojlanish jarayonining o'ziga xos qonuniyatlari, bolalar (7-11 yosh) organizmining morfo-funksional rivojlanish xususiyatlari, bolalar va o'smirlar organizmining jismoniy rivojlanish darajasiga endogen va ekzogen omillarning ta'siri, morfologik va funksional ko'rsatkichlar, shuningdek jismoniy rivojlanish muammolariga tegishli bo'lgan keng doiradagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan.

Adabiyotlar sharhi shundan dalolat beradiki, Orolbo'yi mintaqasida yashaydigan bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari standart qiymatlardan chetga og'ishi gigienik, tibbiy-biologik va boshqa omillarga bog'liq bo'lib, bolalar va o'smirlarning salomatligini saqlash maqsadida kun tartibini optimallashtirish, jismoniy faollikni oshirish choralari ko'rish tavsiya etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida o'smirlar organizmning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlaridagi standart qiymatlardan chetga og'ish holatlari

ekzogen omillar, jumladan noqulay tashqi muhit, ijtimoiy sharoit, gipodinamiya, ovqat tarkibi va ovqatlanish tartibining nomuvofiqligi bilan bog'liqligi qayd qilingan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoliy hududlarida respondentlarning 65,4%, shimoliy hududlarda esa 51% qismi astenik tipga mansubligi keltirilgan. Shu bilan birga shimoliy hududa normosteniklar ulushi 30,1%, janubiy hududda 36,5%, gipersteniklar mazkur hududlarda mos ravishda 4,5% va 12,5% ni tashkil qilishi ko'rsatib o'tilgan.

Shunday qilib, mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni ayniqsa, ekologik xavf darajasi yuqori bo'lgan Orolbo'yi mintaqasida bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanish darajasini doimiy monitoring qilish, hududiy standartlarni ishlab chiqish, mavjud statistik ma'lumotlarni yangilash nuqtai nazaridan davom ettirish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Ayniqsa, geografik-iqlim, ekologik muhit ta'siri sharoitida bolalar va o'smirlar organizmining o'sish va rivojlanish jarayonini monitoring qilish, hududiy me'yoriy standartlarni ishlab chiqish, muntazam yangilab borish, mazkur jarayon regulyasiyasiga hududiy yondashish nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega. Bolalar va o'smirlar organizmida o'sish-rivojlanish jarayoni jismoniy, morfo-fiziologik dinamik jarayonlar kompleksidan tashkil topgan bo'lib, mazkur jarayonga endogen va ekzogen omillar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi qayd qilinadi.

Dissertatsiyaning **“Orolbo'yi mintaqasining umumiy ekologik, ijtimoiy-demografik xususiyatlari, antropo-fiziometrik tadqiqot uslublari”** deb nomlangan **II bobida** ishning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, tadqiqot materiallari va eksperimental hududlar (Mo'ynoq tumani, Nukus shahri va Ellikqal'a tumani) sharhi, bolalarda (7-11 yosh) antropo-somatometrik, fiziometrik ko'rsatkichlarni (tana vazni, bo'y uzunligi va ko'krak qafasi aylanasi) tahlil qilish uslublari, bolalarda tana konstitutsiyasini (somatotip) tavsiflash uslubi (Pushkarev indeksi), kardiorespirator tizimning (arterial qon bosimi, yurak urish chastotasi, o'pkaning tiriklik sig'imi va hayotiy indeks) funksional faolligini tahlil qilish uslublari, energetik almashuv (Robinson indeksi) va vegetativ asab tizimining holatini baholash (Kerdo indeksi) uslublari, dinamometriya (qo'l kafti muskul kuchi), jismoniy rivojlanish darajasini tahlil qilishda indekslar (Ketle II indeksi, Pine indeksi va b) uslubi va olingan natijalarni matematik-statistik qayta ishlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotlar 2019-2022 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Orolbo'yi mintaqasining Mo'ynoq tumanida joylashgan №2- va №3-maktablar, Nukus shahrida joylashgan №8-maktab hamda Ellikqal'a tumanida joylashgan №20- va №37-maktablarda tahsil oladigan 564 nafar 7-11 yoshli o'quvchilar (jumladan, 304 nafar yoki 53,90% o'g'il bolalar, 260 nafar yoki 46,10% qiz bolalar) o'rtasida amalga oshirilgan.

Tekshirishlar davomida olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish “Microsoft Excel 2007” (Microsoft, AQSH) va “OriginPro v. 8.5 SR1” (EULA, AQSH) maxsus dasturiy paketlari yordamida amalga oshirildi. Olingan natijalar standart usullar yordamida matematik-statistik qayta ishlangan.

Dissertatsiyaning **“Orolbo'yi mintaqasida joylashgan maktab o'quvchilarida (7-11 yosh) antropometrik ko'rsatkichlar asosida**

geteroxronizm xususiyatlari” deb nomlangan **III bobida** Orolbo‘yi mintaqasida (Mo‘ynoq tumani, Nukus shahri, Ellikqal‘a tumani) joylashgan maktab o‘quvchilarida asosiy antropometrik ko‘rsatkichlar (tana vazni, bo‘y uzunligi, ko‘krak qafasi aylanasi) asosida geteroxronizm xususiyatlari, Kettle II, Pine, Erisman indeksi), “Z-score”-tahlil asosida jismoniy rivojlanish darajasining solishtirma tahlili va tana konstitutsiyasi (somatotiplar) tahlilining asosiy natijalari keltirilgan.

Mo‘ynoq tumanida joylashgan №2- va №3-maktablarda tahsil oladigan o‘quvchilarida (7-11 yosh) tana vazni o‘g‘il bolalarda minimal $24,46 \pm 0,52$ kg, maksimal $32,08 \pm 1,53$ kg, qizlarda esa mos ravishda $24,00 \pm 0,81$ va $34,12 \pm 1,43$ kg bo‘lib, bunda har ikkala jins vakillarida o‘rtacha me‘yor ko‘rsatkichlariga mos kelishi, shuningdek 10-11 yoshli qizlarda o‘g‘il bolalarga nisbatan tana vazni sezilarli darajada yuqori bo‘lishi kuzatildi (1-jadval).

1-jadval

Mo‘ynoq tumanida joylashgan №2-va №3-maktab o‘quvchilarida asosiy antropometrik ko‘rsatkichlar (tana vazni, bo‘y uzunligi, ko‘krak qafasi aylanasi) tahlili ($M \pm m$)

T/r	Yosh (yil)	Asosiy antropometrik ko‘rsatkichlar					
		Tana vazni (kg)	Me‘yor ³	Bo‘y uzunligi (sm)	Me‘yor	Ko‘krak qafasi aylanasi (sm)	Me‘yor
O‘g‘il bolalar (n=134)							
1.	7	$24,46 \pm 0,52$	24,70	$124,50 \pm 0,81$	123,76	$59,40 \pm 0,40^*$	61,50
2.	8	$28,10 \pm 0,73$	27,02	$128,23 \pm 0,80$	128,08	$61,20 \pm 0,63^*$	63,60
3.	9	$30,30 \pm 1,01$	29,10	$136,70 \pm 0,79^*$	132,10	$63,80 \pm 0,91$	66,00
4.	10	$31,80 \pm 1,04$	32,20	$139,91 \pm 1,10$	137,00	$65,83 \pm 0,79$	67,00
5.	11	$32,08 \pm 1,53^*$	34,80	$140,90 \pm 1,90$	141,20	$66,02 \pm 0,16^*$	68,60
Qiz bolalar (n=116)							
1.	7	$24,00 \pm 0,81$	24,50	$122,40 \pm 0,95$	123,20	$57,10 \pm 0,67^{**}$	60,20
2.	8	$27,10 \pm 0,63$	26,10	$127,70 \pm 0,67$	127,00	$60,80 \pm 0,60$	60,90
3.	9	$30,50 \pm 1,36^*$	28,80	$135,60 \pm 1,39^{**}$	131,40	$62,60 \pm 1,30$	63,60
4.	10	$33,07 \pm 1,28$	32,40	$141,70 \pm 1,25$	137,30	$64,51 \pm 1,11^*$	65,70
5.	11	$34,12 \pm 1,43^*$	36,90	$141,90 \pm 1,15$	142,40	$64,76 \pm 1,27^{**}$	68,10

Izoh: * – standart me‘yor (nazorat) guruhiga nisbatan $p < 0,05$, ** – $p < 0,01$ ($n=3-4$)

O‘quvchilarda bo‘y uzunligi o‘g‘il bolalarda o‘rtacha minimal $124,50 \pm 0,81$ sm, maksimal $140,90 \pm 1,90$ sm, qizlarda esa mos ravishda $122,40 \pm 0,95$ va $141,90 \pm 1,15$ sm bo‘lib, har ikkala jins vakillarida me‘yor darajasiga mos kelishi, 7-8 yoshlilarda bo‘y uzunligi o‘g‘il bolalarda biroz yuqori bo‘lishi, 10-11 yoshda har ikkala jins vakillarida deyarli tenglashishi aniqlandi. Ko‘krak qafasi aylanasi o‘g‘il bolalarda minimal $59,40 \pm 0,40$ sm, maksimal $66,02 \pm 0,16$ sm, qizlarda esa mos

³Шаповалов П.Я., Сулкарнаева Г.А., Васильева А.П. Гигиена детей и подростков (Учебно-методическое пособие для студентов лечебного факультета). Тюмень, 2013. – С.53 // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://studfile.net/preview/5810133/> Дата обращения: 31.08.2023 г.

ravishda $57,10 \pm 0,67$ va $64,76 \pm 1,27$ sm bo'lib, bunda barcha yosh guruhlarida har ikkala jinsda o'rtacha me'yor qiymatlaridan sezilarli darajada past bo'lishi aniqlandi (1-jadval).

Nukus shahrida joylashgan №8-maktab o'quvchilarida (7-11 yosh) tana vazni o'g'il bolalarda minimal $25,30 \pm 0,65$ kg, maksimal $34,86 \pm 1,18$ kg, qiz bolalarda esa tegishli holda $25,30 \pm 0,70$ va $34,83 \pm 1,52$ kg bo'lib, har ikkala jins vakillarida me'yor ko'rsatkichlariga mos kelishi kuzatildi. Shuningdek, mazkur maktab o'quvchilarida (7-11 yosh) bo'y uzunligi o'g'il bolalarda o'rtacha minimal $125,00 \pm 0,86$ sm, maksimal $141,90 \pm 1,20$ sm, qiz bolalarda esa mos ravishda $123,90 \pm 0,78$ va $149,90 \pm 1,15$ sm ga tengligi, bunda o'g'il bolalarda bo'y uzunligi 7-9 yoshda me'yor qiymatlaridan sezilarli darajada yuqori bo'lib, 10-11 yoshda me'yor darajasiga yaqinlashishi, qiz bolalarda esa aksincha, 7-8 yoshda me'yor qiymatlariga yaqin bo'lib, 9-11 yoshda me'yorga nisbatan sezilarli darajada ortishi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Nukus shahrida joylashgan №8-maktab o'quvchilarida asosiy antropometrik ko'rsatkichlar (tana vazni, bo'y uzunligi, ko'krak qafasi aylanasi) tahlili ($M \pm m$)

T/r	Yosh (yil)	Asosiy antropometrik ko'rsatkichlar					
		Tana vazni (kg)	Me'yor ⁴	Bo'y uzunligi (sm)	Me'yor	Ko'krak qafasi aylanasi (sm)	Me'yor
O'g'il bolalar (n=47)							
1.	7	$25,30 \pm 0,65$	24,70	$125,00 \pm 0,86^*$	123,76	$60,30 \pm 0,56$	61,50
2.	8	$28,70 \pm 1,02$	27,02	$129,60 \pm 1,07$	128,08	$62,60 \pm 0,98$	63,60
3.	9	$31,16 \pm 0,90^{**}$	29,10	$137,27 \pm 0,99^{**}$	132,10	$64,51 \pm 0,82^{**}$	66,00
4.	10	$33,90 \pm 1,16$	32,20	$140,10 \pm 1,01^{**}$	137,00	$66,80 \pm 1,04$	67,00
5.	11	$34,86 \pm 1,18$	34,80	$141,90 \pm 1,20$	141,20	$67,04 \pm 1,06^*$	68,60
Qiz bolalar (n=63)							
1.	7	$25,30 \pm 0,70$	24,50	$123,90 \pm 0,78$	123,20	$58,80 \pm 0,75^{**}$	60,20
2.	8	$28,20 \pm 1,02^*$	26,10	$128,70 \pm 0,79$	127,00	$61,60 \pm 0,86$	60,90
3.	9	$31,02 \pm 1,46^{**}$	28,80	$137,20 \pm 1,09^{**}$	131,40	$63,50 \pm 1,34$	63,60
4.	10	$34,20 \pm 0,96^*$	32,40	$143,70 \pm 1,17^{**}$	137,30	$65,10 \pm 0,94$	65,70
5.	11	$34,83 \pm 1,52^*$	36,90	$149,90 \pm 1,15^{**}$	142,40	$66,05 \pm 1,43^*$	68,10

Izoh: * – standart me'yor (nazorat) guruhiga nisbatan $p < 0,05$, ** – $p < 0,01$ ($n=3-4$)

Maktab o'quvchilarida (7-11 yosh) ko'krak qafasi aylanasi o'g'il bolalarda o'rtacha minimal $60,30 \pm 0,56$ sm, maksimal $67,04 \pm 1,06$, qiz bolalarda mos ravishda $58,80 \pm 0,75$ va $66,05 \pm 1,43$ sm ga tengligi, bunda barcha yosh guruhlarida har ikkala jinsda ko'krak qafasi aylanasi ko'rsatkichi qiymatlari me'yordan sezilarli darajada past bo'lishi qayd qilindi (2-jadval).

⁴Шаповалов П.Я., Сулкарнаева Г.А., Васильева А.П. Гигиена детей и подростков (Учебно-методическое пособие для студентов лечебного факультета). Тюмень, 2013. – С.53. // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://studfile.net/preview/5810133/> Дата обращения: 20.04.2022 г.

Ellikqal'a tumanida joylashgan №20-, №37-maktablarda o'qiydigan o'quvchilarida, o'g'il bolalarda tana vazni o'rtacha minimal 25,98±1,03 kg, maksimal 35,03±1,23 kg, qiz bolalarda esa tegishli holda 61,85±1,05 va 68,00±1,38 kg ga teng bo'lib, bu me'yor darajasida ekanligi qayd qilindi. Bo'y uzunligi o'g'il bolalarda o'rtacha minimal 126,40±1,04 sm, maksimal 141,90±0,90 sm, qiz bolalarda esa mos ravishda 124,20±1,21 va 144,40±1,48 sm ga teng bo'lib, bu har ikkala jins vakillarida me'yor ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada yuqori ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, ko'krak qafasi aylanasi o'g'il bolalarda (7-11yosh) o'rtacha minimal 61,85±1,05 sm, maksimal 68,00±1,38 sm, qiz bolalarda esa tegishli holda 59,20±0,68 va 66,07±1,12 sm ga teng bo'lib, bu ko'rsatkichlar me'yor darajasida ekanligi qayd qilindi (3-jadval).

3-jadval

Ellikqal'a tumanida joylashgan №20-, №37-maktablardagi o'quvchilarning asosiy antropometrik ko'rsatkichlari (tana vazni, bo'y uzunligi, ko'krak qafasi aylanasi) tahlili ($M\pm m$)

T/r	Yosh (yil)	Asosiy antropometrik ko'rsatkichlar					
		Tana vazni (kg)	Me'yor ⁵	Bo'y uzunligi (sm)	Me'yor	Ko'krak qafasi aylanasi (sm)	Me'yor
O'g'il bolalar (n=123)							
1.	7	25,98±1,03	24,70	126,40±1,04*	123,76	61,85±1,05	61,50
2.	8	29,20±0,91*	27,02	130,70±1,31	128,08	63,00±0,83	63,60
3.	9	32,90±0,70	29,10	138,70±1,12**	132,10	65,50±0,71	66,00
4.	10	34,30±0,95	32,20	141,40±1,06**	137,00	67,20±0,85	67,00
5.	11	35,03±1,23*	34,80	141,90±0,90	141,20	68,00±1,38	68,60
Qiz bolalar (n=82)							
1.	7	26,10±0,65*	24,50	124,20±1,21	123,20	59,20±0,68	60,20
2.	8	28,70±0,74	26,10	129,10±0,95*	127,00	62,06±0,79*	60,90
3.	9	32,00±0,84**	28,80	138,80±1,11**	131,40	64,30±0,88	63,60
4.	10	35,80±1,67	32,40	144,40±1,48**	137,30	65,90±1,95	65,70
5.	11	35,93±1,15	36,90	143,90±1,01	142,40	66,07±1,12	68,10

Izoh: * – standart me'yor (nazorat) guruhiga nisbatan $p<0,05$, ** – $p<0,01$ ($n=3-4$).

Olingan natijalar tahlili asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumani, Nukus shahri va Ellikqal'a tumanlarida joylashgan maktablarda o'quvchilarning (7-10 yosh) asosiy antropometrik ko'rsatkichlari (tana vazni, bo'y uzunligi, ko'krak qafasi aylanasi) qiymatlari sezilarli darajada variatsion farqlanishi, bunda janubiy hududlarda mazkur ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlari nisbatan yuqori bo'lishi kuzatildi. Mo'ynoq tumani, Nukus shahri va Ellikqal'a tumanlarida joylashgan maktablarda o'quvchilarning (7-10 yosh) tana vaznini o'rtacha qiymatlari o'g'il bolalarda 29,35±1,14>30,78±1,09>31,48±0,87

⁵Шаповалов П.Я., Сулкарнаева Г.А., Васильева А.П. Гигиена детей и подростков (Учебно-методическое пособие для студентов лечебного факультета). Тюмень, 2013. – С.53. // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://studfile.net/preview/5810133/> Дата обращения: 20.04.2022 г.

ketma-ketlikda, qiz bolalarda esa mos ravishda $29,76 \pm 0,58 > 30,71 \pm 1,35 > 31,71 \pm 1,42$ ketma-ketlikda, tegishli qonuniyat asosida ortishi aniqlandi.

Maktab o'quvchilarida (7-11 yosh) bo'y uzunligining o'rtacha qiymatlari o'g'il bolalarda $134,05 \pm 2,34 > 134,77 \pm 3,18 > 135,82 \pm 2,65$ ketma-ketlikda, qiz bolalarda esa mos ravishda $133,86 \pm 3,21 > 136,68 \pm 2,56 > 136,08 \pm 3,05$ ketma-ketlikda bo'lishi, o'z navbatida ekologik omil ta'siriga nisbatan sezgir javob reaksiyasiga ega emasligi bo'yicha xulosa chiqarish mumkin.

7-11 yoshli o'quvchilarida ko'krak qafasi aylanasi o'rtacha qiymatlari o'g'il bolalarda $63,25 \pm 1,17 > 64,25 \pm 1,63 > 65,11 \pm 0,97$ ketma-ketlikda, qiz bolalarda esa mos ravishda $61,95 \pm 1,72 > 63,01 \pm 1,16 > 63,51 \pm 1,39$ ketma-ketlikda bo'lishi, umumiy holatda ortib borish dinamikasi kuzatildi.

Ketle II indeksining o'rtacha qiymatlari 7-10 yoshli o'g'il bolalarda me'yor ko'rsatkichlarining quyi chegarasiga yaqin bo'lib, 11 yoshda me'yorning quyi chegarasiga nisbatan biroz (4,94% ga) past bo'lishi, qiz bolalarda esa 7-11 yoshda umumiy holatda me'yorning quyi chegarasiga yaqin bo'lishi aniqlandi.

Mazkur maktablardagi o'quvchilarning Pine indeksi qiymatlari bo'yicha olingan natijalar tahlili asosida, umumiy holatda har ikkala jins vakillari (7-11 yosh) **ektomorf** yoki kuchsiz rivojlangan gavda tuzilishiga (gipostenik yoki **astenik** tip) ega ekanligi (Pine indeksi > 30) aniqlandi.

7-11 yoshli o'quvchilarning antropometrik ko'rsatkichlarini o'rtacha qiymatlari bo'yicha "Z-score"-tahlili va sentil-shkala qiymatlari tahlili o'rtacha me'yor darajasida bo'lishi aniqlandi.

Olingan natijalarning tahlili asosida o'g'il bolalar kontingentida (7-11 yosh) tana vazni, bo'y uzunligi va ko'krak qafasi aylanasini o'rtacha qiymatlari bo'yicha Pushkarev indeksi jismoniy rivojlanish "uyg'unlikda rivojlanish" (normostenik/MeS) darajasiga mos kelishini ko'rsatdi. Shuningdek, qiz bolalar kontingentida Mo'ynoq tumanida joylashgan №2- va №3-maktab o'quvchilarida, 9 yoshda (Pushkarev indeksi=111,76), hamda Nukus shahrida joylashgan №8-maktab o'quvchilarida 11 yoshda (Pushkarev indeksi=113,54), uyg'unlikda bo'lmagan ("disgormonik") rivojlanish (me'yordan chetga og'ish I darajasi/astenik tip) qayd qilindi, qolgan yosh guruhlarida "uyg'unlikda rivojlanish" (normostenik/MeS) darajasi aniqlandi.

Dissertatsiyaning "**Orolbo'yi mintaqasida joylashgan maktab o'quvchilarida (7-11 yosh) ayrim funksional faollik ko'rsatkichlari asosida geteroxronizm tahlili**" deb nomlangan IV bobida maktab o'quvchilarida (7-11 yosh) yurak-qon tomir tizimi funksional ko'rsatkichlari tahlili, energetik almashuv va vegetativ asab tizimi funksional ko'rsatkichlari tahlili, nafas olish tizimining funksional ko'rsatkichlari tahlili hamda dinamometriya asosida geteroxronizm tahlili natijalari keltirilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanida joylashgan №2- va №3-maktab o'quvchilarida (7-11 yosh) yurak urish chastotasi o'g'il bolalarda minimal $86,80 \pm 2,21$, maksimal $95,00 \pm 2,04$ marta/minut, qizlarda esa mos ravishda $87,80 \pm 1,13$ va $95,10 \pm 1,98$ marta/minutga tengligi, sistolik/diastolik arterial qon bosimi o'g'il bolalarda o'rtacha minimal $103,80 \pm 2,03/75,50 \pm 2,09$ va maksimal $113,70 \pm 1,69/78,10 \pm 1,19$ mm s.u., qizlarda mos ravishda

